


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



THE IMPORTANCE OF SEMANTIC CRITERIA IN DISTINGUISHING COPULATIVE COMPOUNDS IN PASHTO

Ugildjan Sh. Abduvaliyeva

PhD, senior lecturer

*Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: semantic criterion, antonymic relations, semantic integrity, components, semantic influence.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: In linguistics, especially in Afghan linguistics, the distinction between copulative compounds has scientific and practical significance. The question of the boundaries of this division requires the definition of a clear criterion. An analysis of the works of Afghan linguists shows that copulative units in Pashto do not differ from each other and clear criteria for their differentiation have not been developed. Determining their differences effectively influences the process of lexicographic research and translation. For this reason, it is appropriate to distinguish copulative compound words according to phonetic, morphological and semantic characteristics. This article examines the semantic criteria of copulative compound words based on an analysis of theoretical views on the topic and classification of the collected factual material.

PASHTU TILIDAGI KOPULYATIV QO'SHMA SO'ZLARNI FARQLASHDA SEMANTIK MEZONNING AHAMIYATI

O'g'iljon Sh. Abduvaliyeva

PhD, katta o'qituvchi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: semantik mezon, komponent, sinonimik va antonimik munosabat, semantik butunlik, komponentlar tartibi, semantik ta'sir.

Annotatsiya: Tilshunoslikda ayniqsa, afg'on tilshunosligida kopulyativ qo'shma so'zlarni o'zaro farqlash ilmiy hamda amaliy ahamiyatga egadir. Mazkur birlikning chegarasi masalasi aniq mezonnini belgilashni

talab etadi. Afg'on tilshunoslari asarlarining tahlili pashtu tilida kopulyativ birliklar o'zaro ajratilmasligi, ularni farqlashda aniq mezonlar ishlab chiqilmaganligini ko'rsatadi. Ularni farqli belgilarini aniqlash, leksikografik izlanishlar va tarjimalar jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdankopulyativ qo'shma so'zlarni fonetik, morfologik va semantik belgilar asosida farqlash maqsadga muvofiq sanaladi. Mazkur maqolada mavzuga oid nazariy qarashlar tahlili va to'plangan faktik materiallar tasnifi asosida kopulyativ qo'shma so'zlarning semantik mezonlari haqida mulohaza yuritiladi.

ЗНАЧЕНИЕ СЕМАНТИЧЕСКИХ КРИТЕРИЕВ В ОТЛИЧЕНИИ КОПУЛЯТИВНЫХ СЛОЖНЫХ СЛОВ В ЯЗЫКЕ ПУШТУ

Угилджан Ш. Абдувалиева

PhD, старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семантический критерий, компонент, синонимические и антонимические отношения, смысловая целостность, порядок компонентов, смысловое влияние.

Аннотация: В лингвистике, особенно в афганской лингвистике, различие между копулятивными сложными словами имеет научное и практическое значение. Вопрос о границах этого подразделения требует определения четкого критерия. Анализ работ афганских лингвистов показывает, что копулятивные единицы в пушту не отличаются друг от друга и четких критериев их дифференциации не выработано. Определение их различий эффективно влияет на процесс лексикографических исследований и переводов. По этой причине уместно различать копулятивные сложные слова по фонетическим, морфологическим и семантическим признакам. В данной статье рассматриваются семантические критерии копулятивных сложных слов на основе анализа теоретических взглядов на тему и классификации собранного фактического материала.

KIRISH

Kopulyativ qo'shma so'zlar semantik nuqtai nazardan bir butunlik xususiyatiga ega. Shuni aytish joizki, tarkibiy qismlarning semantik chatishuvi har xil bo'lishi mumkin. Ba'zi o'rirlarda ularning ma'nosini komponentlarning ma'nosidan keltirib chiqarish mumkin, garchi ular

ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasa ham. Kopulyativ qo'shma so'z tarkibiy qismlarida semantik mustaqillik yo'qolib, komponentlar birikuvidan yangi ma'noga ega birlik yuzaga keladi.

ASOSIY QISM

Ingliz olimlari qo'shma so'zlarni farqlashda eng ko'p qo'llaniladigan va eng ishonchli mezon sifatida - ma'no mezoniga (semantika) ishora qilishadi.

Kopulyativ qo'shma so'zlar tarkibidagi komponentlar o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotadi:

ترگلهینکلى نازولى جانان يوورجىرو
بن كى دىگلوبنایىت ھە دە لە رنگە وينم
چىلمىسىپۇرمى بە يېنىايىت تە سلامى كولە
اوس ھادرنە پېغىلە دكۈززىارت ملنگە وينم

[tər gula şkelay nāzwalay djānān yawər djagro
bañ ke də gulo şāyest ham dadə lə ranga winəm
ce **lmarspuj̬mey** bə ye şāyest ta salami kawəla
os hā dərāna peghla də koz ziyārat malanga winəm]
“Guldanda nozik jonon olib borar jangin,
Ko'rurman undagi rangdin olar bog'dagi gular o'z chiroyin,
Mash'ala husni yuzindin anga salom berardi
Endi esa aziz qizda ko'rurman cho'kkan darveshni”.

Ushbu misralardagi *lmarspuj̬mey* 'mash'ala' kopulyativ qo'shma so'zi tarkibidagi so'zlar ma'nosi saqlanmaganini (*lmar* 'quyosh', *spuj̬mey* 'oy') kuzatish mumkin.

Semantik nuqtai nazardan kopulyativ qo'shma so'zlarning komponentlari orasida sinonimik va antonimik munosabat mavjud. Kopulyativ qo'shma so'z tarkibiy qismlari orasidagi sinonimik munosabat: *lidəna katəna* 'uchrashuv', *käfe wäfe* 'qing'ir-qiyshiq', 'egri-bugri', *xwar bewazla* 'kambag'al-bechora', *zahir* 'qari-eksa', *zor* 'zahir' 'خواربېزلە', *toqa təkāla* 'umor'.

پوره يو کال يى د کابل پوهنتون له استادانو او مھصلىني سره کاري **لېدىنى كتنى** وکرى او پە دى چوكات كى يى د اساسىي جورونى پايلە تر لاسه كەرە چى يوه اندازه لومنى او ضروري مرستى تر لاسه شوي.

[pura yaw kal ye də kābul pohantun lə ustādāno aw muhasəlino sara kāri **lidəne katəne** wukrə aw pə de čokāt ke ye də asāsi joławəne pāyəla tər lāsa kraqa če yawa andāza lomrəaney aw zaruri mraste tər lāsa šwe]

“U bir yil davomida Kobul universiteti o‘qituvchilari va talabalari bilan uchrashdi va bu bilan birinchi va zarur yordam olish imkoniyatini qo‘lga kiritdi”.

Yuqorida keltirilgan misolda *اللیدل lidəl* ko‘rmoq va *ككتل katəl* qaramoq fe’llari otlashib bir-biri bilan qo‘shilishi natijasida “uchrashuv” ma’nosni kelib chiqdi.

To‘plangan misollar tarkibiy qismlari o‘zaro sinonim bo‘lgan kopulyativ qo‘shma so‘zlar kam miqdorda uchrashini ko‘rsatdi.

Kopulyativ qo‘shma so‘zlar tarkibiy qismlari orasidagi antonimik munosabat:

لواړۍ واره lwaṛa-dzəwara ‘noteoris’, ‘o‘ydim-chuqur’, *کټور هلوړه kattā-kichik*, *ناستهولاره nasta walāra* ‘muloqot’, ‘uchrashuv’, *راکړه ورکړه rākṛa warkṛa* ‘savdo-sotiq’, ‘oldi-berdi’, *لړو پېښډي lire nəjde* ‘uzoq-yaqin’, *پورته، کښته، پښډي kṣəta porta* ‘ostin-ustin’, *الږو پې ozmi-ko‘pmi*.

انجنيـلـطـيفـچـيدـهـمـگـامـلـهـنـزـدـېـلـگـرـوـهـمـوـاـدـېـرـهـنـاسـتـهـوـلـارـهـبـیـسـرـهـکـوـلـاهـدـخـوـاـشـینـیـپـهـخـرـګـنـدـلـوـوـاـیـیـ،ـهـمـگـامـ

”کـوـمـهـجـدـيـنـارـوـغـينـهـرـلـوـدـلـهـخـوـپـهـخـورـاـکـبـهـیـاـحـتـاطـهـکـاوـهـاـوـدـغـورـوـخـورـاـکـونـلـهـخـورـوـسـرـهـیـمـنـهـرـلـوـدـهـ.“

[injiner latif če də hamgām lə nəjde malgro ham wu aw Əera **nasta walāra** ye sara kawəla də xwaśiney pə cargandawəlo wayi, hamgām “kuma jədi nāroğī na darlodəla xo pə xorak ke bə ye ehtiyāt na kawə aw dəğwaṛo xorakuno lə xwaro sara ye mina darloda”]

“Muhandis Latif Hamgomning yaqin do‘sti ham edi va u bilan juda ko‘p **muloqotda** bo‘lgan edi, u hamdardlik izhor etayotib “Hamgomning jiddiy kasaliyo‘q edi, lekin u ovqatlanishda o‘zini ehtiyot qilmadi, yog‘li taomlarni iste’mol qilishni yaxshi ko‘rardi”.

Ushbu misollarda ham komponentlar birikkan holda butunligicha bir leksik ma’noni ifodalab kelyapti.

Shuningdek, kopulyativ qo‘shma so‘zlar komponentlarining tartibi qat’iy belgilangan, ya’ni ularning tartibini o‘zgartirish semantik butunlikka putur yetkazadi va natijada so‘zlar alohida o‘z asl ma’nosini holatiga kelib qoladi va oldinigi qo‘shma so‘zlik holatidagi ma’noni bermaydi. Masalan: *کور و اور kor-u-or* ikkala komponent birgalikda ‘mulk’ ma’nosini anglatса, komponentlar tartibi o‘zgarishi bilan (ya’ni *اور و کور or-u-kor* ‘olov va uy’) so‘zlar alohida alohida o‘z asl ma’nosini beradi va tarjimada g‘alizlik yuzaga kelib, kutilgan ma’noni keltirib chiqarmaydi. Aynan mana shu semantik xususiyat kopulyativ qo‘shma so‘zlarni boshqa kopulyativ birliklardan o‘zaro farqlash mezoni sifatida xizmat qila oladi.

Demak, qachonki biron bir elementning kopulyativ qo‘shma so‘z ekanligini yoki emasligini hal qilmoqchi bo‘lsak, an’anaviy uch turdagи mezonlarni qo‘llash va natijani ko‘rish mumkin. Ushbu mezonlar odatda aniq javob berish uchun yetarlidir. Misol uchun, quyidagi so‘zlarning kopulyativ qo‘shma so‘z ekanligini bilmoqchi bo‘lsak, ko‘rsatilgan tartibda harakat qilishimiz mumkin:

پېښي لاس و پېښي *lās-o-pše* ‘to‘rt mucha’, ‘butun tana’ (so‘zma-so‘z: ‘qo‘l’ va ‘lās-o-pše’ ‘oyoqlar’): *morfologik mezondano*‘tadi: tarkibiy qismlar birgalikda ma’lum bir so‘z turkumi vazifasini bajarib (ot so‘z turkumi), morfologik butunlik kuzatiladi, komponentlar o‘rnini o‘zgartirib bo‘lmaydi; *ma’no sinovidan o‘tadi*: qo‘l-oyoqqa emas balki, ‘to‘rt mucha’, ‘butun tana’ga ishora qiladi va semantik yaxlitilikga ega; *fonetik butunlik kuzatiladi*: komponentlar asosiy urg‘u bilan birlashib, ikkinchi tarkibiy qismga tushadi (biz bu yerda yagona urg‘u deya olmaymiz chunki kopulyativ qo‘shma so‘zning bo‘laklari ko‘p bo‘g‘inli bo‘lgan hollarda, yoki interfaksi tushib qolgan hosilalarda asosiy urg‘udan tashqari birinchi bo‘lakdagi ikkinchi darajali urg‘u seziladi). Shunday qilib, bu kopulyativ qo‘shma so‘zdir.

XULOSA

Tadqiqot tahlilidan shunisi ma’lum bo‘ldiki, pashtu tilidagikopulyativ qo‘shma so‘zlar komponentlari o‘rtasida sinonimik va antonimik munosabat mavjud. Bunda tarkibiy qismlardan birining boshqa so‘zga o‘zgara olmaslik hodisasi kopulyativ qo‘shma so‘zlarni farqlash mezoni sifatida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, kopulyativ qo‘shma so‘zlar komponentlarining tartibi qat’iy belgilangan, ya’ni ularning tartibini o‘zgartirish semantik butunlikka putur yetkazadi. Komponentlarni bir-biridan ajratib bo‘lmasligi sababli ular bir-biriga semantik ta’sir o‘tkazishi kopulyativ qo‘shma so‘zlarni boshqa kopulyativ birliklardan o‘zaro farqlash mezoni sifatida xizmat qila oladi.

Kopulyativ qo‘shma so‘zning semantik butunligi uning tarkibi bilan izohlanadi: kopulyativ qo‘shma so‘zning bo‘laklarini bir-biridan ajratib bo‘lmasligi sababli ular bir-biriga bevosita semantik ta’sir o‘tkazadi.

Semantik mezon jihatidan kopulyativ qo‘shma so‘zning ma’nosi tarkibiy qismlar ma’nosidan emas, balki ularning birikuvidan yangi ma’noga ega birlik yuzaga kelishi ahamiyatlidir. Kopulyativ qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismlari yaqin ma’noli so‘zlar bilan yasalishi kammahsulligi dalillandi. Shuningdek, tarkibiy qismlardan birining boshqa bir sinonim yoki antonim so‘zga o‘zgaraolmasligi va komponentlarni bir-biridan ajratib bo‘lmasligi sababli ular bir-biriga semantik ta’sir o‘tkazishi kopulyativ qo‘shma so‘zlarni farqlovchi mezon ekanligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Калинина З. М. Очерки лексикологии и современного пушту. –Москва: 1972.
2. Маннонов А. Шарқшунослик масалалари. –Т.: 2022.
3. Нуридинов Н.Н. Форс тилида қўшма сўз ва сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари. Филол.фун.док.(PhD)...дисс.автореф. – Т.: 2020.
4. Laurie Bauer, Rochelle Lieber, Ingo Plag. The Oxford Reference Guide to English Morphology. 19.2 Criteria for defining compounds. Oxford University Press. 2013. –P.48.
5. ژوند ته و گوره، ژوند خه دئ؟. کابل. ۱۳۹۵. ص-۶۱. لعل پاچا ازمن..
6. <https://benawa.com/pashto/print>.
7. <https://www.bbc.com/pashto/afghanistan-46586574>